

Date: 15th March-2025

INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARINING
KONSEPTUALLASHUVI VA ULARNI BILISHNING KOGNITIV SHAKLLARI

Muratxodjaeva Feruza Xotamovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti, G'arb tillari kafedrası dosenti

Konseptualizatsiya – ongda konseptlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlaridir, konseptga olib boradigan yangi ma'lumotlarning anglanishidir.

Z.D.Popova, I.A. Sterninlar konseptlarning shakllanishidagi beshta omilni keltirishgan:

1. Insonning bevosita hissiy tajribasidan –voqelikni hissiy organlari orqali idrok etishidan.

2. Insonning predmetlar bilan bevosita birgalikdagi operatsiyalaridan, uning predmet faoliyatidan.

3. Inson fikrlash operatsiyalarining uning ongida mavjud bo'lgan boshqa konseptlar bilan bo'lgan operatsiyalaridan. Bunday operatsiyalar yangi konseptlarning shakllanishiga olib keladi. G.G.Slishkin ularni “metakonseptlar” deb aytaydi.

4. Til aloqasidan.

5. Insonning hayoti davomida o'zlashtirgan til birliklari ma'nolarini mustaqil anglashdan (katta yoshlilar notanish bo'lgan so'zning ma'nosini izohli lug'atdan qaraydi va u orqali mavjud konsept bilan tanishadi.

Konsept, obraz kognitiv qolip, model sifatida tavsiflansa, freym, skript, ssenariy, geshtalt konseptual tizim birliklari sifatida qayd etiladi.

Sh.Safarov freymni insonning boshqa axborotlarni idrok etishi, qabul qilishi uchun zarur bo'lgan bilimlar zahirasi sifatida tavsiflagan. Har bir shaxs ongidagi freymlar to'plami mavjud bilim va yangi ma'lumolarni idrok etish jarayonini ta'minlaydi.

Skript (ingl. script) «qo'lyozma, yozuv» ma'nosidagi so'z. Skript konseptual tuzilma sifatida qaraladi, voqelikning inson tafakkurida aks etayotgan me'yoriy ketma-ketligini ifoda etadi.

Borliq, makon elementlari qay tartibda bo'lmasin, inson ongi uni tartiblashtiradi, tizimli ravishda reallashtiradi. Bu jarayon inson ongidagi proektsiyalarning mazkur elementlar bilan aloqadorlik darajasi, ular o'rtasidagi bir -birini taqozo qiluvchi belgilar asosida tizimlashtiriladi.

«Geshtalt» olmoncha gestalt (obraz, struktura, yaxlit shakl) so'zidan olingan bo'lib, ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlari umumlashmasini anglatadi.

Head “bosh” leksemasining quyidagi ko'chma ma'nolari shu so'zning o'zbek tilidagi ma'no xususiyatlariga mos keladi:

T/r	Head ishtirokidagi so'z birikmalari	Head leksemasi semalari va ko'chim turi
1	injure someone's head (boshini shikastlamoq)	the top part of your body (tana a'zosi)

Date: 15th March-2025

2	be in someone's head (kimningdir xayolida bo'lmoq)	mind and thought (o'y va fikrlar)-metonimiya
3	heads of government (hukumat rahbarlari)	the leader or most important person in a group (boshchi, sardor yoki guruh ichidagi muhim insonlardan biri)-vazifadoshlik
4	the head waiter (bosh ofisiant)	the leader or most -vazifadoshlik
5	the head of the queue (navbatning boshi)	in the sense of forefront (nimaningdir old qismi)-metafora
6	a ship off the beach head (sohil bo'yidagi kema)	in the sense of headland, a headland or promontory (niningdir chekka qismi, yoqasi, asosan, daryo bo'yi ma'nosida)
7	The head of river (Daryoning boshlanish qismi)	in the sense of source (manba, asos ma'nosida)
8	the head of the stairs (zinapoyaning yuqori qismi)	in the sense of top, the highest part of a thing (nimaningdir yuqori qismi)
9	300 head of cattle (300 bosh qoramol)	used as a way of counting farm animals (hayvonlar miqdorini aniqlash usuli, hisob so'zi)
10	heading the department's Office of Civil Rights (departamentning fuqarolik huquqlari bo'yicha boshqarmasiga rahbarlik qilmoq)	to be in charge of a group or organization (mas'ul bo'lmoq)
11	The region saw incomes per head of all ban average 4 per cent a year over the past decade (Mintaqada so'nggi o'n yil ichida aholi boshiga to'g'ri keladigan daromad yiliga o'rtacha 4 foizga kamaydi)	A head is also used as a measurement (o'lchov birligi sifatida)
12	To build a head (to'g'on qurmoq)	a bank of earth constructed to control water (suvni nazorat qilish uchun qurilgan to'g'on ma'nosida)
13	Counting heads (boshlarini sanamoq, odamlar soni nazarda tutilgan)	a member of the human race (odam, inson)
14	give me a chance to visit the head, and Ill be all set to go (qo'l yuvish xonasiga borib kelay. Tezda tayyor bo'laman)	a room furnished with a fixture for flushing body waste (yuvinish xonasi, ayollar xonasi)
15	To write heads in boldface (sarlavhani qalin harflarda yozmoq)	a word or series of words often in larger letters placed at the beginning of a passage or at the top of a page in order to introduce or categorize (so'z yoki so'z birikmasi ko'pincha katta harflar bilan kirish yoki turkumlashtirish uchun parcha boshida yoki sahifaning yuqori qismida joylashtiriladi)

Ingliz tilida *head* so'zining quyidagi ko'chma ma'nolari ingliz tilining o'ziga xos bo'lib, o'zbek tilida kuzatilmaydi.

Ingliz tilida head / *bosh* "yuqori", "uch" ma'nolarida ishlatiladi:



Date: 15th March-2025

a head of lettuce (bir bog' ko'kat) – the top part of a plant where a flower or leaves grow (o'simlikning gul o'sadigan yuqori qismi). Ko'kat hajmini bildirgan *head* “bog'lam” ma'nosidan ko'ra o'simlikning ildiziga qarama-qarshi, ya'ni yuqori qismini anglatadi. Quyidagi birikuvlarda ham head leksemasining “yuqori”, “uch” semalari aks etgan:

coming to a head (avj nuqtasiga kelmoq) – in the sense of climax a culmination (avj nuqtasi, kulminasiya ma'nosida).

the *head* on the ice cream soda (muzqaymoq ko'piklari) – a light mass of fine bubbles formed in or on a liquid (suyuqlik yuzasida hosil bo'lgan pufakchalar).

Head's campus (giyohvandlar kampusi) – a person who regularly uses drugs especially illegally (giyohvand moddalarini, ayniqsa, noqonuniy ravishda muntazam ishlatadigan shaxs). Bunda *head* “uchiga chiqqan”, “yuqori nuqtadagi” mazmunidagi semani ifodalaydi.

Ingliz lisoniy ongida boshning inson tanasi yuqori qismida joylashuvi ma'no ko'chishlariga asos bo'lgan.

Head for business – mental abilities (mental qobiliyat) birikmasida “bosh” va unga aloqador faoliyat – mental qobiliyat ifoda etilmoqda.

Recording head (ovoz yozib olish uskunasi) the part of a tape or video recorder (magnitafon yoki videomagnitafon qismi), **heading to true way (to'g'ri yo'lga yo'naltirmoq)** – to go in a particular direction (muayyan yo'nalishda harakatlanmoq) birikuvlarida ***head* vazifadoshlik asosida ko'chma ma'no hosil qilgan.**

Head the ball (koptokni irg'itmoq) – to hit with head (bosh bilan irg'itmoq) birikuvlarida *head* ingliz muhitiga xos bo'lgan futbol o'yini asosida shakllangan. Chunki bosh bilan irg'itish futbol o'yinida kuzatiladi.

Head ingliz tilidagi bir qator iboralarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Hit the nail on the head (boshiga mix bilan urmoq) – “batafsil tushuntirmoq” frazeologizmida ma'no reallikka zid bo'lgan “boshga mix bilan urish” harakatiga asoslangan. Ingliz madaniyatida bo'lishi mumkin bo'lmagan harakat asosida axborotni “miyaga joylash”, “aniq etkazish” mazmuni ifodalangan.

Bir qator frazeologizmlarda head/ **bosh** leksemasining “yuqori”, “uch” semalari aso bo'lgan. Keep your head above water (boshini suv yuzasiga chiqarmoq) – “faqat yashash uchungina puli qolgan” mazmunidagi frazeologizmida **yo'qchilikning yuqori nuqtasi ifoda etilgan.**

“Xavfsiz joyga qochmoq, boshpana izlamoq” ma'nosidagi head for the hills (cho'qqiga qarab harakatlanmoq) frazeologizmida cho'qqi, er sathining eng yuqori nuqtasiga qarab harakatlanish asos qilib olingan.

A roof over your head (bosh ustiga tom) frazeologizmi “boshpana” ma'nosini anglatadi. Head/ **bosh** sinekdoxa asosida butunni, insonni bildiradi.

Beat one's head against a stone wall (boshni tosh devorga urmoq) frazeologizmida “befoyda” ma'nosi mantiqsiz harakat asosida reallashgan.

Bite someone's head off (birovning boshini tishlamoq) frazeologizmi “birovni qattiq haqorat qilmoq” ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida bu ma'no “dumini bosib olmoq”

iborasi bilan ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratkhojajeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. *International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management*, 2(2), 63-70.
2. Boboyeva, M. (2023). SO 'Z BIRIKMASINING POLIFUNKSIONAL MOHIYATI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 380-387.
3. Khaydarovna, B. M. (2024). DETERMINING THE LEXICAL MEANING OF PLACE PREPOSITIONS. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR*, 1(1), 30-33.
4. Muratkhojajeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. *International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management*, 2(2), 63-70.
5. Xotamovna, M. F. (2024). TRANSLATION DIFFICULTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS FROM ENGLISH INTO UZBEK. *IMRAS*, 7(11), 103-107.
6. Xotamovna, M. F. (2024). LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MATNLARIDAGI REALIYALAR TASNIFI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(30), 305-307.